

## **KUZGI BUG'DOYNI DON HOSILDORLIGIGA MAHALLIY VA MA'DAN O'G'ITLARI TA'SIRI**

*Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti,*

**M.Z.Mamadaliyev**

*Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti*

**G.A.Abdullayeva**

**Annotatsiya:** *Maqolada o'tloqi saz tuproqlar sharoitida sholi poxoli, mahalliy va mineral o'g'itlar me'yorlarini kuzgi bug'doyning don hosildorligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot natijalari keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kuzgi bug'doy, barg sathi, rivojlanish davrlari, sholi poxoli, mahalliy o'g'it, mineral o'g'itlar.*

**Аннотация:** *В статье представлены результаты научных исследований по урожайности зерна озимой пшеницы при использовании рисовой соломы, местных и минеральных удобрений в условиях травянистых суглинистых почв.*

**Ключевые слова:** *озимая пшеница, листовой уровень, сроки развития, рисовая солома, местное удобрение, минеральные удобрения.*


**Abstract:** *The article presents the results of scientific research on the grain yield of winter wheat using rice straw, local and mineral fertilizers in conditions of grassy loamy soils.*

**Key words:** *winter wheat, leaf level, development periods, rice straw, local fertilizer, mineral fertilizers*

Qishloq xo'jalik soxasida boshqoli ekinlari don hosildorligi va don sifatini oshirishda mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlardan, birinchi navbatda, yuqori maxsuldor navlardan foydalanish ularni biologik xususiyatlarini o'rganib, ular bilan to'g'ri munosabatda bo'lish ijobiy natijalarga erishishni ta'minlaydi. Hosilni o'z

vaqtida yig'ib olish, ularning muddatini to'g'ri belgilash katta ahamiyatga ega bo'lib, muddatidan oldin yig'ib olingan mahsulot sifatiga (puch bo'lib qolishi yoki sifat ko'rsatkichlari pasayib ketishiga) salbiy ta'sir etishi yoki kech yig'ib olinishi don hosili to'kilib nobud bo'lishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham hosilni yig'ishtirib olish o'z vaqtida va qisqa muddatlarda tugatish, nobudgarchilikni oldini olib, bug'doydan mo'l hosil olishga zamin yaratadi. Don hosili to'la pishgan davrida kombaynlar yordamida yig'ishtirilib olinadi. Donning to'liq pishishi kuzgi bug'doyning butunlay sarg'ayishi bilan ifodalanadi. Shuningdek, qo'llanilgan agrotexnik tadbirlarning ahamiyati hosildorlik bilan baholanadi. Bu borada Farg'ona viloyati o'tloqi saz tuproqlari sharoitida tajribalar olib borildi. Tajribalarda asosiy ekin sifatida parvarishlangan sholidan so'ng sholi poxolidan siderat sifatida foydalanish hamda ma'dan o'g'itlar me'yoriga qo'shimcha 10 va 20 t/ga go'ng qo'llashning kuzgi bug'doyning hosildorligiga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kuzgi bug'doyning don hosildorligi o'rganilgan variantlarda turlicha bo'lib, nazoratga nisbatan taqqoslandi. Yuqori me'yorda mineral o'g'itlar qo'llash, shuningdek, sholi poxoli mahalliy o'g'itlar bilan qo'llanilishi mineral o'g'itlar me'yorini kamaytirish bilan birga samaradorligini ham ortishiga ijobiy ta'sir qilishi aniqlandi. Kuzgi bug'doyning don hosili o'g'itsiz (nazorat) parvarishlangan variantda o'rtacha 26,5 s/ga ni tashkil qilgan bo'lsa, kuzgi bug'doyni mineral o'g'itlarning N 200, P 140, K 100 kg/ga me'yori qo'llanilgan variantda esa 61,1 s/ga ga teng bo'lganligi aniqlandi. 6 t sholi poxoli fonida N 100, P 75, K 50 kg/ga me'yorida mineral o'g'itlar qo'llanilgan 3-variantda 47,8 s/ga, shu fonda N 150, P 105, K 75 kg/ga me'yorida mineral o'g'itlar qo'llanilganda 53,4 s/ga ga teng bo'lganligi qayd etildi. 6 t sholi poxoli+10 va 20 t/ga me'yorda go'ng qo'llanilgan fonlarida esa eng yaxshi natija 6 t sholi poxoli +20 t/ga go'ng fonida N 150, P 105, K 75 kg/ga me'yorida mineral o'g'itlar qo'llanilgan variantda kuzatilib, 67,6 s/ga ga teng bo'lib, nazorat (o'g'itsiz) variantga nisbatan 41,1 s/ga qo'shimcha do hosili olinganligi aniqlandi. Bunga shudgor ostiga 6 t sholi poxoli

+ 20 t/ga me'yorda go'ng qo'llanilishi mineral o'g'itlar samaradorligini yanada oshirib, don hosili yuqori bo'lishiga xizmat qilganligini xulosa qilish mumkin. (1-rasm).



$$HCP_{05} = 0,90 \text{ ц}; \quad HCP_{05}(A) = 0,62 \text{ ц}; \quad HCP_{05}(B) = 0,45 \text{ ц}$$

*1-rasm. Sholi poxoli hamda mahalliy va mineral o'g'itlar me'yorlarining kuzgi bug'doy don hosiliga ta'siri (o'rtacha uch yilda).*

Umuman olganda olingan ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, kuzgi bug'doy don hosildorligi kam yoki yuqori bo'lishi qo'llanilgan agrotexnologik tadbirlar va ularning o'z vaqtida sifatli olib borilishiga bog'liq holda o'zgarar ekan. Xususan, oziqlantirish agrotadbirlar orasida alohida o'rin tutadi. Oziqlanish esa bevosita tuproq bilan bog'liq bo'lib, uni organik qismini boyitish o'simliklarni tuproqdan oziqlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Shu nuqtai nazardan sholi poxoli hamda mahalliy o'g'itlar qo'llash tuproqni oraganik qismini boyitadi. Natijada kuzgi bug'doydan yuqori don hosili olishga zamin yaratadi.

**Xulosa** demak, kuzgi bug'doyni maqbul me'yorda mineral o'g'itlar bilan taninlash xosildorlikni oshirishga sabab bo'ladi va bu orqali iqtisodiy samaradorlik ham ortadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O.Soatov. Yer resurslaridan foydalanish iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari. Agro ilm – O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. -Toshkent, 2012.- №1(21). – B. 78-79.
2. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. –Toshkent. 2007.-148 b.
3. A.Turdaliev, M.Mamadaliyev. Kuzgi bug'doy don hosiliga sholi poxoli, mahalliy va mineral o'g'itlar me'yorlarining ta'siri. Agro ilm – O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. -Toshkent, 2023. №3 (96). – B. 6-7.
4. A.T.Turdaliyev, M.Z.Mamadaliyev. Kuzgi bug'doyning umumiy va mahsuldor poyalar sonini o'zgarishiga mahalliy va mineral o'g'itlar tasiri. “Qishloq xo'jaligida resurs tejoychi innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishning ilmiy-amaliy asoslari”. Halqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman. Andijon-2023 y. 113-116-b.